

## **Raqamli texnologiyalar – korrupsiyaga qarshi kurashning yangi quroli**

### **Hurmatli hamkasblar, aziz fuqarolar!**

Korrupsiya nafaqat davlatimiz rivojlanishidagi eng katta to‘siqlardan biri, balki har birimizning kundalik turmush tarzimizga bevosita ta‘sir ko‘rsatayotgan muammo-illatdir.

U amalga oshirishni rejalashtirayotgan har bir ishimizga, loyihalar sifatiga, xizmatlar tezligiga va eng muhimi, jamiyatdagi ishonchga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. An‘anaviy usullar bilan kurashish muhim, ammo ular ko‘pincha kutilgan natijani bermaydi.

Shuning uchun biz yangi – zamonaviy va samarali yechimga, raqamli texnologiyalarga murojaat qilmoqdamiz.

Raqamli texnologiyalar, ya‘ni transformasiya haqida gap ketganda, ko‘pincha uning afzalliklari: tezlik, qulaylik, mavjudlik ko‘zga tashlanadi, passport olish uchun ariza berish yoki farzandni maktabga joylashytirishni uydan chiqmasdan amalga oshirish mumkinligiga guvoh bo‘ldik.

Korrupsiya faqat pora olish emas, bu iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradigan, shu jumladan, fuqarolarning hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarga ishonchini susaytiradigan va tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun adolatsiz sharoit yaratadigan kasallikdir. Unga qarshi kurashishning an‘anaviy usullari muhim, lekin ular korrupsiya holati sodir etib bo‘lingach ishga tushadi, sabablar bilan emas, balki oqibatlar bilan kurashadi. Raqamli transformasiya esa muammoning ildizini yorib tashlash imkonini beradi, korrupsiyaga olib keladigan kelishuvlarni istisno qiladigan yoki juda qiyinlashtiradigan muhit yaratadi.

### **Raqamli transformatsiya – korrupsiyaga qarshi tabiiy pardo**

Raqamlashtirish nafaqat qulaylik yaratadi, balki shaffoflikni oshiradi va korrupsiya imkoniyatlarini oldini oladi, quyidagi sohalarda raqamli texnologiyalar orqali allaqachon sezilarli natijalarga erishdik.

### **Davlat Xizmatlarini Raqamlashtirish**

Barcha davlat xizmatlari “bir oyna” tamoyili asosida elektron shaklda ko‘rsatilmoqda, fuqarolar bilan davlat xizmatchisi o‘rtasidagi bevosita aloqa minimallashtirildi, har bir amaliyot raqamli iz qoldiradi, bu esa noqonuniy harakatlarni minimallashtirish imkonini bermoqda.

### **Ochiq ma‘lumotlar platformasi**

Davlat xaridlari onlayn rejimda amalga oshirilmoqda, barcha xizmatlar, tenderlar va shartnomalar ochiq ko'rsatilmoqda, har bir fuqaro xaridlar jarayonini nazorat qilishi mumkin.

### **Sun'iy intellekt tizimlari**

Shubhali operatsiyalarni avtomatik aniqlash, moliyaviy oqimlarni tahlil qilish, korrupsion xavfni oldindan bashorat qilish.

### **Inson omilini bekor qilish**

Agar subyektiv qaror bo'lmasa, pora uchun joy qolmaydi. Proaktiv va beqaror muloqot xizmatlarini joriy qilish – bizning asosiy vositamiz.

Proaktivlik – davlat o'z ma'lumotlariga tayanib xizmat taklif qiladi, fuqaro imtiyoz olishini isbotlashi shartmas, tizim byni biladi va xabarnoma yuboradi, fuqaroga uni tasqiqlash qoladi, kimgadir pora berish kerakmas.

Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish. Bir qahcha ommaviy jarayonlar ommaviy ma'muriy jarayonlar (masalan YATTni ro'yxatdan o'tkazish, subsidiyalar rasmiylashtirish) to'liq avtomatlashtirilgan. Qarorni amaldor emas, balki reglamentda belgilangan aniq qoidalar asosida ishlovchi algoritmi qabul qiladi.

### **Amalga oshirilgan loyihalarimiz:**

- ✓ “DMED” - tibbiyot olamida sizning shaxsiy yordamchingiz.
- ✓ “Yagona Platforma” – barcha davlat xizmatlari markazlashtirilgan tizim.
- ✓ “Elektron Imzo” – hujjatlarning haqiqiylikini kafolatlash.
- ✓ “Mening Solig'im” – soliq to'lovchilar uchun shaffof hisobot tizimi.

### **Kelajakdagi Maqsadlarimiz:**

Blockchain texnologiyalarini joriy etish;  
Sun'iy intellekt yordamida riskli operatsiyalarni aniqlash;  
Raqamli audit tizimini takomillashtirish;  
Xalqaro hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, raqamli texnologiyalar bizga korrupsiyaga qarshi kurashishda kuchli qurol berdi. Biroq bu faqat texnologiya masalasi emas. Muvaffaqiyat uchun barchaning – ham davlat organlarining, ham fuqarolarning faol ishtiroki zarur.

Keling, birgalikda toza va shaffof jamiyat quramiz!

***O'zbekiston Respublikasi Raqamli  
texnologiyalar vaziri o'rinbosari***

***R.O.Karimjonov***